

## MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Ikramova Iroda Normuratovna**

Osiyo xalqaro universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11195171>

**Annotatsiya.** Mamlakat iqtisodiyotining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan mamlakat hukumati tomonidan jamiyat hayotining turli jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lami va shiddatiga bog'lqdir. Bunda nufuzli xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va ko'rsatmalariga asoslanib ish ko'rish muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur maqolada Jahon banki tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish borasida keltirilgan taklif va tavsiyalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, xalqaro reyting va indekslar, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, inson kapitali, innovatsiyalar, innovatsion faollik, strategiya, iqtisodiy o'sish.

## PRIORITY DIRECTIONS OF INCREASING THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY

**Abstract.** The increase in the competitiveness of the country's economy in the international arena is largely due to the scale and intensity of the reforms carried out by the Government of the country in various aspects of society. It is important to act in accordance with the recommendations and guidelines of reputable international organizations. As a result, this article analyzes the proposals and recommendations of the World Bank to improve the competitiveness of the economy of Uzbekistan.

**Keywords:** national economy, competitiveness, international ratings and indices, modernization and diversification of the economy, human capital, innovation, innovation activity, strategy, economic growth.

## ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

**Аннотация.** Повышение конкурентоспособности экономики страны на международной арене во многом обусловлено масштабом и интенсивностью реформ, проводимых правительством страны в различных аспектах жизни общества. Важно действовать в соответствии с рекомендациями и руководящими принципами авторитетных международных организаций. Исходя из этого, в данной статье анализируются предложения и рекомендации Всемирного банка по повышению конкурентоспособности экономики Узбекистана.

**Ключевые слова:** национальная экономика, конкурентоспособность, международные рейтинги и индексы, модернизация и диверсификация экономики, человеческий капитал, инновации, инновационная активность, стратегия, экономический рост.

Har qanday mamlakatda ichki bozorda raqobatning mavjudligi bozor xo'jaligi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi, jahonning ko'plab mamlakatlari, shu jumladan, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda raqobat to'g'risida

qonunlarning qabul qilinganligi va mazkur masalalar bilan shug'ullanuvchi milliy tashkilotlarning tashkil etilganligi ushbu holatni tasdiqlab turibdi. Xususan O'zbekistonda Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi (Monopoliyaga qarshi qo'mita) tashkil etilgan bo'lib, uning faoliyati respublika iqtisodiyotida raqobat muhitini yaratish, mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar va firmalar, shu jumladan, mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar va firmalar xo'jalik faoliyatini yuritish uchun teng raqobat imkoniyatlarini barpo etishga yo'naltirilgan.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi - bu iqtisodiyotning muhim ko'rsatkichlari holatini tashqi parametrlarga nisbatan yalpi baholashni o'zida mujassam etgan qiyosiy tavsif hisoblanadi, shu sababli milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi xalqaro raqobatda namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi namoyon bo'lishning ko'p darajali shakllariga ega:

- tovarning raqobatbardoshligi;
- xodimning raqobatbardoshligi;
- tovar ishlab chiqaruvchisining raqobatbardoshligi;
- tarmoqning raqobatbardoshligi;
- mamlakatning raqobatbardoshligi (yoki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi).

Bunda raqobatbardoshlikning barcha darajalari o'rtasida jips ichki va tashqi o'zaro bog'liqlik mavjud. Mamlakat va tarmoqning raqobatbardoshligi pirovardida muayyan tovar ishlab chiqaruvchining raqobatbardosh tovar ishlab chiqarish qobiliyatiga bog'liq. Raqobatbardoshlikni barpo etish va rivojlantirishning M.Porter konsepsiyasiga asoslangan zamonaviy modeli mamlakatning umumiy xususiyatga ega bo'lgan va unda ishlab chiqaruvchilar raqobatlashadigan raqobat muhitini shakllantiruvchi to'rtta xususiyatidan iborat. Ushbu muhit raqobat ustunliklarini shakllantirishga ko'maklashishi ham yoki unga to'sqinlik qilishi ham mumkin.

Mamlakat raqobat ustunliklariga erishishi uchun barcha ushbu determinantlar o'zaro hamkorlik qilishi lozim (M.Porterning ta'riflashicha - milliy romb). Faqatgina o'zaro hamkorlik qiluvchi va bir-birini kuchaytiruvchi determinantlarning butun tizimi bo'yicha ustunlik milliy iqtisodiyotda milliy ishlab chiqaruvchilarning muvaffaqiyati uchun zamin hisoblangan va undan xorijiy raqobatchilar nusxa ko'chirishi yoki uni yo'q qilishi qiyin bo'lgan (yohud hatto mumkin bo'lmagan) muhitni shakllantiradi. Agar «Omillar uchun shart-sharoitlar» determinantini ko'rib chiqadigan bo'lsak, shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish omillari nazariyasi bo'yicha tovar aylanishining oqimi ishlab chiqarishning mehnat, yer, tabiiy resurslar, sarmoya, infratuzilma kabi omillarini belgilab beradi. Xususan, mamlakat jahon bozoriga ularni ishlab chiqarishning ortiqcha omillariga asoslangan tovarlarni yetkazib beradi.

Biroq zamonaviy rivojlangan milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi hisoblangan texnologik jihatdan murakkab tarmoqlarda mamlakat yuqori malakali ishchi kuchi yoki sanoat ishlab chiqarishning ilmiy-texnika bazasi kabi ishlab chiqarishning eng muhim omillari shakllantiriladi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida mamlakatda ishlab chiqarishning u yoki bu omillarining mavjudligi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Jahon iqtisodiyotidagi tendensiyalarni, jumladan, globallashtirish, yuqori axborotlashuv va hokazolarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish omillarini shakllantirish va yangilashning tezligi va samaradorligi hamda iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlarida oqilona qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakat ega bo'lgan mehnat resurslari yoki

tabiiy resurslar kabi qiyosiy ustunliklar sanoatning ko'p ilm talab qiluvchi tarmoqlarida ustunlikni ta'minlamaydi.

Shu munosabat bilan ishlab chiqarish omili mazkur tarmoqning muayyan talabiga nisbatan yuqori darajada ixtisoslashgan bo'lishi kerak, chunki zamonaviy xalqaro raqobatda ishlab chiqarishning tayanch omili raqobat jihatdan ustunlikni ta'minlamaydi, Raqobatchilar tomonidan bosim o'tkazilishi xarajatlarni pasaytirish yo'llarini qidirishga va mahsulot raqobatbardoshligining oshishiga olib keladi. Uchinchi, kompaniyalar va umuman tarmoq rivojlanishiga investisiyalarni rag'batlantirish, bu doimiy texnologik yangilanishga va innovasiyalarning joriy etilishiga olib keladi.

To'rtinchidan, ichki bozorda talabning bozordan xolisona axborot olinishni ta'minlovchi tegishli holati bo'lishi kerak. Milliy iqtisodiyotning «Barqaror strategiya, tuzilma va raqobatchilik» sifatida belgilangan raqobat jihatdan ustunligini shakllantirishning eng muhim omilini ko'rib chiqamiz.

Demak, mamlakatda kompaniyani tashkil etish va boshqarish tendensiyalariga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lum sharoitlarning mavjudligi ham ichki raqobatning xususiyatini belgilab beradi.

Agar, jahon tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, (so'nggi o'n yil mobaynida boshqaruvning yaponcha usulidan keng foydalanilayotgan bo'lsada) kompaniyani boshqarishning universal tizimi mavjud emas. Mazkur holatda tarmoqning raqobatbardoshligi aynan ushbu mamlakat uchun va raqobat jihatdan ustunliklardan kelib chiqib ishlab chiqarishning ma'lum tarmog'i uchun yuzaga kelgan boshqaruv amaliyoti hamda tashkil etish modellarini uyg'unlashtirishning natijasi sifatida ishtirok etadi.

Ta'kidlash joizki, raqobat jihatdan ustunliklarni shakllantirish uchun mehnatga va xodimlarning kasbiy ko'nikmalarini oshirishga shaxsiy qiziqtirish ham muhim rol o'ynaydi.

So'nggi o'n yilliklar iqtisodiy amaliyoti shuni isbotlamoqdaki, buyuk iqtidor va qobiliyat sohiblari millat uchun eng katta va ahamiyatli resurs hisoblanadi, chunki mamlakat erishayotgan yutuqlar ko'p jihatdan ushbu iqtidor sohiblari tanlaydigan ta'limning darajasi va xiliga, qayerda ishlashni afzal ko'rishiga, ularning ishlashiga va harakat qilishiga bog'liq. Shuning uchun mamlakatlar insonlar nuqtai nazaridan nufuzli yoki undan milliy qahramonlar yetishib chiqadigan iqtisodiy faoliyatni raqobatbardosh qilishga intiladi. bo'lib mamlakatda jahon iqtisodiyoti darajasida raqobatbardosh bo'lgan turdosh va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlarning mavjud bo'lishi hisoblanadi. «Talab holati» determinantiga kelsak, shuni ta'kidlash joizki, raqobatni globalashtirish jarayoni milliy iqtisodiyot ichki talabining muhimligi roli va darajasini oshirdi.

Biroq ushbu holatda ularning ichki talabi kompaniyalarga xaridorlar ehtiyojlarining yuzaga kelishi haqidagi aniq yoki ilgari axborotni ta'minlovchi tarmoqlarda raqobat jihatdan ustunlikka ega bo'lishi mumkin. Shunday qilib, iste'molchilar kompaniyani innovatsiyani joriy etishga va raqobat jihatdan ustunliklarni xorijiy raqobatchilarga qaraganda tezroq qo'lga kiritishga majbur qiladi.

Bunda asosiysi ichki talabning hajmi emas, balki uning xususiyati muhim hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, ichki talabning holati tarmoqning muayyan segmenti ichki bozorda tashqi bozorlardagiga qaraganda ko'zga ko'rinarli bo'lgan sharoitda raqobat jihatdan ustunliklarni yaratishning asosi bo'lishi mumkin, modomiki, ichki bozorning yirik segmenti kompaniya uchun

ancha ustuvorli. Bundan tashqari, ichki bozor iste'molchilarining mohiyati ham muhim hisoblanadi, chunki rivojlangan va talabchan xaridorlar kompaniyalarni yuqori standartni ushlab turish, takomillashish va yangiliklarni joriy etishga majbur etgan holda ular uchun buyurtmachilar ehtiyojlarini oldindan ko'ra olishni ta'minlaydi. Shunday qilib, ishlab chiqarish omillari uchun shartsharoitlar kabi talabning holati ham raqobat jihatdan ustunliklarni ta'minlaydi, chunki u kompaniyalarga ishlab chiqarishni yaxshilash, xarajatlarni pasaytirish va mahsulot sifatini oshirish uchun turtki beradi.

Raqobatbardoshlikning yanada yuqori bosqichi-bu investitsiyalar asosidagi raqobatbardoshlik.

Ushbu bosqichda mamlakatlarning raqobat jihatdan ustunliklari faol investisiya siyosatiga asoslanadi. Bunda ham texnologik rivojlanish chetdan keltirilgan texnologiyalarga asoslanadi, biroq bu o'zlashtirish birinchi bosqichdagi kabi passiv hisoblanmaydi. Firmalar eng yaxshi texnologiyalar, litsenziya, nou-xauga investitsiya qilishadi, bunda texnologiyalar mamlakat ichida doimiy ravishda takomillashib boradi. Iqtisodiyot ichida sarmoyaning kuchli safarbar qilinishi sodir bo'ladi, kapital qo'yilmalarning o'sishi omillarning takomillashuviga (infratuzilmaning rivojlanishiga, mehnat resurslari sifatining oshishiga) olib keladi, shu bilan birga, u ularning qimmatlashuvini ham keltirib chiqaradi. Rivojlanishning eksportga yo'naltirilgan strategiyasi ishlab chiqiladi, chunki ichki bozor hali unchalik katta va talabchan emas va shuning uchun mahsulot sifatini takomillashtirishga undamaydi.

Innovatsiyalar bosqichi iqtisodiyot raqobatbardoshligining ichki salohiyati to'liq ishga tushishi bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda firmalar nafaqat xorijiy texnologiyalarni qo'llashadi va takomillashtiradi, balki o'z texnologiyalarini barpo etishadi. Daromadlarning yuqori bo'lishi, ta'lim darajasining oshishi va jadal ichki raqobat tufayli ichki bozor sig'imli va talabchan bo'ladi. Ushbu bosqichda firmalar global strategiyalarni ishlab chiqishadi va chet elda keng ko'lamli investitsiyalarni amalga oshiradi. Mamlakatning raqobatbardoshligini mamlakatning erkin va halol raqobat sharoitida jahon bozori talablarini qondiruvchi tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish qobiliyati sifatida ta'riflash mumkin. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi-iqtisodiyotning muhim ko'rsatkichlarini tashqi omillarga nisbatan yalpi baholashni o'zida mujassamlantirgan qiyosiy tavsif, shu sababli milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi xalqaro raqobatda namoyon bo'ladi.

## REFERENCES

1. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 366-372.
2. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 333-340.
3. Шадиев, А. Х., & Давронов, И. О. (2020). Роль развития персонала в повышении эффективности услуг и его влиянии на экономику. *Вопросы науки и образования*, (6 (90)), 15-17.
4. Шадиев, А. Х. (2020). Способы улучшения структуры управления в туризме. *Вопросы науки и образования*, (7 (91)), 29-31.

5. Bazarova, M. S., & Khudaiberdiyeva, O. Q. (2022). IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 464-467).
6. Supievnova, B. M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION.
7. Supievnova, B. M. (2023). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 381-386.
8. Supiyevna, B. M. (2023). TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA PERSONALNI BOSHQARISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 409-414.
9. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 379-385.
10. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). "РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ" ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
11. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 373-378.
12. Xalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 747-753.
13. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.
14. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.
15. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.
16. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.
17. Nafisa, R. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS OF MODERN MANAGEMENT TRAINING. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 265-269.
18. Raxmonqulova, N. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 340-347.
19. кизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
20. Nafisa, R. (2023). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI ORQALI HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 556-560.
21. Raxmonqulova, N. (2024). THE ROLE OF CYBER SECURITY IN THE DIGITAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(1), 111-115.



22. Авезова, Ш. М., & Жумаева, З. К. (2013). МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. СЕКЦІЯ 1. Економіка і управління національним господарством..... 9, 12.
23. Примова, А. А., Усманова, Н. Ю., & Жумаева, З. К. (2013). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ АГРАРНОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА. In ЕКОНОМІКА І УПРАВЛІННЯ: ПРОБЛЕМИ НАУКИ ТА ПРАКТИКИ (pp. 199-202).
24. Жумаева, З. К., & Тошев, Ф. З. (2017). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. Ученый XXI века, 77.
25. Рузметов, Б. Р., & Жумаева, З. К. (2020). АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 246-250).
26. Жумаева, З. К., & Гафуров, Э. О. (2022). ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ГОСУДАРСТВА. Редакционная коллегия, 358.
27. Jumayeva, Z. (2024). THEORY OF SUPPLY AND DEMAND AND ITS MARKET RELATIONSHIP EFFECT. *Modern Science and Research*, 3(2), 426-432.
28. Jumayeva, Z. (2024). WAYS AND METHODS OF DEVELOPING SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN OUR COUNTRY. *Modern Science and Research*, 3(2), 433-440.
29. Zamira, J. (2024). IQTISODIYOTDA SUNIY INTELLEKT DAN FOYDALANISH ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 320-325.
30. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
31. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
32. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 385-390.
33. Abidovna, A. S. (2024). "PERSONNEL MANAGEMENT" AND "HUMAN RESOURCE MANAGEMENT": HISTORY OF ORIGIN, ESSENCE AND RELATIONSHIP OF CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 336-343.
34. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
35. Hakimovich, T. M. (2024). XODIMLARNI BOSHQARISHDA KPI SAMARADORLIGI TAHLILI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 270-273.
36. Hakimovich, T. M. (2023). BOSHQARUVCHILARNING SAMARADORLIKKA ERISHISHDAGI PROFESSIONALLIGI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 421-425.
37. To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHDA INVESTITSIYALARNING O 'RNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 258-264.

38. Sodiqova, N. (2024). ECONOMIC POLICY IN THE FIELD OF YOUTH EMPLOYMENT: FOREIGN EXPERIENCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 330-339.
39. To'rayevna, S. N. (2024). TADBIRKORLIK SOHASINI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.
40. Sodikova, N. (2024). OTMda "Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari" fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-4.
41. Ibdulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
42. Ibdulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHİYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
43. Ibdulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
44. Ibdulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
45. Ibdulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQRISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O'RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.
46. Ibdulloyevich, I. E. (2024). RESPUBLIKADA XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.
47. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
48. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.
49. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
50. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
51. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
52. Naimova, N. (2024). DIGITALIZATION IN OUR COUNTRY'S EDUCATION SYSTEM AND APPLICATION IN THE DIGITAL WORLD. *Modern Science and Research*, 3(1), 912-917.
53. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.

54. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO 'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 326-335.
55. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF DIGITALIZATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES OF THE STATE TAX COMMITTEE. *Modern Science and Research*, 3(2), 635-641.
56. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION SALOHIYATNING AHAMIYATI.
57. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1257-1261.
58. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. *Science and Education*, 4(7), 476-481.
59. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. *Modern Science and Research*, 3(1), 933-938.